

Strategies For Developing English Terminological Competence In Future Medical And Pharmacy Specialists

Senior Lecturer Sodiqova D.A.,

Institute of Pharmaceutical Education and Research

Teacher Akhmedova D.A.,

Institute of Pharmaceutical Education and Research

Annotation

This article discusses the issue of developing English terminological competence in future medical and pharmaceutical specialists. It analyzes the essence of terminological competence, its importance for medical and pharmaceutical specialties, as well as effective strategies for its development. The results of the study indicate the need to apply a professionally oriented approach, integration and gradual principles in teaching English.

Keywords: terminological competence, medical English, pharmacy, professionally oriented education, ESP, communicative approach, strategy.

Annotatsiya

Mazkur maqolada bo'lajak tibbiyot va farmatsiya mutaxassislarida ingliz tilidagi terminologik kompetensiyani rivojlantirish masalasi yoritiladi. Unda terminologik kompetensiyaning mohiyati, tibbiyot va farmatsiya yo'nalishlari uchun uning ahamiyati, shuningdek, uni rivojlantirishning samarali strategiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari ingliz tilini o'qitishda kasbiy yo'naltirilgan yondashuv, integratsiya va bosqichlilik tamoyillarini qo'llash zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: terminologik kompetensiya, tibbiyot ingliz tili, farmatsiya, kasbiy yo'naltirilgan ta'lim, ESP, kommunikativ yondashuv, strategiya.

Kirish. Hozirgi globallashuv davrida tibbiyot va farmatsiya sohalarining jadal rivojlanishi, xalqaro ilmiy hamkorlikning kuchayishi, xalqaro tadqiqot dasturlarida ishtirok etish, klinik sinovlar, dori vositalarini ro'yxatdan o'tkazish jarayonlari va tibbiy hujjatlarning aksariyat qismining ingliz tilida yuritilishi mutaxassislar uchun ingliz tilini puxta egallashni dolzarb ehtiyojga aylantirmoqda. Bugungi kunda tibbiyot xodimlari, farmatsevtlar, laboratoriya mutaxassislari va ilmiy xodimlar xalqaro maqolalarni o'qish, global tibbiyot standartlarini o'zlashtirish, xorijiy hamkasblar bilan muloqot qilish hamda xalqaro konferensiyalarda ishtirok etish jarayonida ingliz tilidagi kasbiy terminologiyani faol qo'llaydilar. Shu bois bo'lajak tibbiyot va farmatsiya mutaxassislarining ingliz tilini bilish darajasi, ayniqsa, terminologik savodxonligi ularning kelajakdagi kasbiy faoliyati samaradorligini belgilovchi asosiy

kompetensiyalardan biriga aylanmoqda. Tibbiyot sohasida terminologiya — bu oddiy so'z boyligi emas, balki ilmiy tushunchalar tizimining ifodasi, kasbiy tafakkurni shakllantiruvchi asosiy vosita, klinik qaror qabul qilish, bemor bilan muloqot qilish, diagnostika va davolash jarayonlarini tushunish uchun zarur bo'lgan funksional lingvistik resursdir. Terminlarni to'g'ri anglash va qo'llay olish mutaxassisning mantiqiy fikrlashi, ilmiy tahlil qilish qobiliyati hamda klinik vaziyatlarga to'g'ri munosabat bildirishini belgilaydi. Shu sababli talabalarda terminologik kompetensiyani shakllantirish — ESP (English for Specific Purposes) kurslarining markaziy vazifasi bo'lib, u nafaqat lingvistik tayyorgarlikni, balki kasbiy tafakkur, analitik fikrlash, ilmiy izlanish madaniyati va kasbiy kommunikativ savodxonlikni ham rivojlantirishga xizmat qiladi. Mazkur kompetensiyani erta bosqichdan shakllantirish talabalarning

ilmiy matnlar bilan ishlash qobiliyatini oshiradi, ularni klinik protokollar, farmakologik tavsiflar, laboratoriya ma'lumotlari va xalqaro tibbiy hujjatlarni mustaqil tahlil qilishga tayyorlaydi. Natijada, bo'lajak tibbiyot va farmatsiya mutaxassisleri global ilm-fan maydonida faol ishtirok eta oladigan, xalqaro standartlarga mos, raqobatbardosh kadr sifatida shakllanadi.

1. Terminologik kompetensiyaning mohiyati va ahamiyati

Terminologik kompetensiya — bu shaxsning o'z kasbiy yo'nalishiga oid terminlarni nafaqat to'g'ri tushunish, izohlash va kommunikativ jarayonda samarali qo'llay olish, balki terminning ortida turgan ilmiy tushunchani anglab, uni professional kontekstda aniq ifodalay olish qobiliyatidir (Faber, 2009). Bu kompetensiya til bilimlari, kognitiv jarayonlar va kasbiy muloqot madaniyatining uyg'unlashgan shaklini tashkil qiladi. Bakirova H.B. (2020) ta'kidlaganidek, terminologik kompetensiya mutaxassisning kasbiy lisoniy savodxonligining asosi bo'lib, u orqali talaba ilmiy ma'lumotni to'g'ri idrok etadi, ma'nodosh tushunchalarni farqlaydi, tarjima qiladi va kasbiy muloqotda aniqlik, qisqalik va mantiqiy izchillikka erishadi. Ayniqsa, farmatsiya va tibbiyot yo'nalishlarida terminologik kompetensiya o'quvchining professionallikka intilishi va klinik jarayonlarni to'g'ri anglashida muhim rol o'ynaydi. Mazkur sohalarida u kasbiy terminlarni to'g'ri talaffuz qilish va yozish, murakkab tibbiy matnlar va klinik tavsiflarni anglash hamda ularni sharhlash, klinik va farmatsevtik holatlarda samarali kommunikatsiya olib borish, ilmiy manbalar, protokollar, dori vositalariga oid yo'riqnomalar va kasbiy adabiyotlar bilan mustaqil ishlash malakalarini shakllantiradi. Terminologik kompetensiyaning rivojlanishi talabaga ilmiy tafakkurni chuqurlashtirish, kasbiy tushunchalar tizimini shakllantirish

va xalqaro ilmiy hamjamiyat bilan samarali muloqot qilish imkonini yaratadi. Bu esa kelajakdagi mutaxassisning ilmiy- kasbiy yetukligi va professional faoliyatining sifatini belgilovchi strategik omil hisoblanadi.

Bakirova H.B. (2020) ta'kidlaganidek, terminologik kompetensiya mutaxassisning kasbiy lisoniy savodxonligining asosi bo'lib, u orqali talaba ilmiy ma'lumotni to'g'ri idrok etadi, tarjima qiladi va muloqotda aniqlikka erishadi. Farmatsiya va tibbiyot yo'nalishlarida bu kompetensiya:

- kasbiy terminlarni to'g'ri talaffuz qilish va yozish;
- tibbiy matnlarni anglash va tahlil qilish;
- klinik va farmatsevtik holatlarda kommunikatsiya olib borish;
- kasbiy adabiyotlar bilan ishlash malakasini shakllantiradi.

2. Terminologik kompetensiyaning rivojlantirishning metodik asoslari

Terminologik kompetensiyaning rivojlantirishning metodik asoslari kasbiy yo'naltirilgan, kognitiv va kommunikativ yondashuvlarning uyg'unligiga tayanadi. Ushbu jarayon, avvalo, o'quv materialining mutaxassislik mazmuni bilan integratsiyasiga, ya'ni terminlarni bevosita kasbiy kontekstda o'rgatishga asoslanadi. Kognitiv yondashuv terminlarning semantik mazmunini, tushunchalar o'rtasidagi mantiqiy bog'lanishlarni anglashni ta'minlaydi; kommunikativ yondashuv esa terminlarni real nutqiy vaziyatlarda, klinik holatlar, laboratoriya jarayonlari, kasbiy muhokamalar va rolli o'yinlar davomida qo'llash imkonini beradi. Shu bilan birga, matnga asoslangan o'qitish, integrativ mashqlar, tarjima amaliyoti, ilmiy matn tahlili va kasbiy topshiriqlar terminologiyani chuqur o'zlashtirishning samarali vositalaridir. Zamonaviy axborot texnologiyalaridan — elektron lug'atlar, terminologik platformalar, simulyatorlar va interaktiv dasturlardan foydalanish ham talabalarda terminlarni eslab qolish, tez topish va ulardan faol foydalanish

ko'nikmalarini shakllantiradi. Shu tariqa, metodik asoslarning kompleks qo'llanishi terminologik kompetensiyaning izchil, mazmunli va amaliy shakllanishini ta'minlaydi. Tibbiyot va farmatsiya yo'nalishidagi ingliz tili o'qitish jarayonida terminologik kompetensiyani rivojlantirish quyidagi metodik tamoyillarga asoslanadi:

1. **Kasbiy yo'naltirilganlik tamoyili** – o'quv jarayoni talabalar mutaxassisliklariga mos terminologiya asosida tashkil qilinadi. Masalan, *anatomy, dosage form, prescription, side effects* kabi terminlar kontekstda o'rgatiladi.

2. **Kognitiv yondashuv** – talabalarda terminlarning semantik mazmunini anglash orqali bilimlarni tarmoqlashga yordam beradi (Faber, 2009).

3. **Integrativ yondashuv** – til, fan va kasbiy mazmun o'zaro bog'liq holda o'rgatiladi (Bakirova, 2020).

4. **Kommunikativ yondashuv** – terminologiyani real muloqot, ro'yxatga olish, klinik suhbat yoki retsept yozish vazifalari orqali o'rgatish.

3. Rivojlantirish strategiyalari

Kognitiv, integrativ va kommunikativ yondashuvlar terminologik kompetensiyani rivojlantirishning o'zaro bog'liq metodik asoslari bo'lib, talabalarda kasbiy tushunchalarni chuqur anglash va amaliy qo'llashni ta'minlaydi. Kognitiv yondashuv, Faber (2009) ta'kidlaganidek, terminlarning semantik mazmunini anglash, ularni tushunchalar tizimiga joylashtirish va bilimlarni mantiqiy tarmoqlashga xizmat qiladi. Integrativ yondashuv esa Bakirova (2020) fikriga ko'ra, til, fan va kasbiy mazmunning bir butun tizimda o'rgatilishini nazarda tutadi, ya'ni terminlar bevosita mutaxassislik jarayonlari bilan bog'liq holda o'zlashtiriladi. Kommunikativ yondashuv esa talabalarga terminlardan real nutqiy va kasbiy vaziyatlarda — klinik suhbatlar, ro'yxatga olish jarayonlari, retsept yozish, kasbiy dialog va amaliy topshiriqlarda foydalanish imkonini yaratib, ularning

terminologiyani faol, aniq va maqsadga muvofiq qo'llash malakasini shakllantiradi. Tadqiqotlar (Skornyakova & Vinogradova, 2021; Nurmatova, 2023) shuni ko'rsatadiki, terminologik kompetensiyani samarali rivojlantirish uchun quyidagi strategiyalar eng muhim hisoblanadi:

1. Bosqichma-bosqich o'rganish strategiyasi

O'quv jarayoni uch bosqich asosida tashkil qilinadi:

- Tanishuv bosqichi – terminlarning talaffuzi, tarjimai va asosiy ma'nosi bilan tanishish;
- Amaliy bosqich – mashqlar, klinik holatlar, rolli o'yinlar orqali terminlarni qo'llash;
- Integratsiya bosqichi – ilmiy maqola, taqdimot yoki simulyatsiya orqali terminlarni faol ishlatish.

2. Matnga asoslangan o'qitish strategiyasi. Matnga asoslangan o'qitish strategiyasi tibbiyotga oid ilmiy va kasbiy matnlar — maqolalar, klinik protokollar, bemor kartalari, dori tavsiflari va retseptlar asosida o'quv jarayonini tashkil etishni nazarda tutib, terminlarning tabiiy kontekstda o'zlashtirilishini ta'minlaydi, chunki talaba terminni izolyatsiyada emas, balki real kasbiy vazifalar doirasida ko'radi va tahlil qiladi.

3. **Axborot texnologiyalaridan foydalanish strategiyasi** terminlarni yodlash va mustahkamlash jarayonini interaktiv va mustaqil shaklga keltirib, elektron lug'atlar, "Quizlet", "Wordwall", "Anki" kabi platformalar orqali tez-tez takrorlash, sinov qilish, multimodal o'rganish imkonini yaratadi; shuningdek, BodyMap 3D kabi virtual simulyatorlar anatomiya va farmakologiya terminlarini vizual asosda o'zlashtirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

4. **Tadqiqotga yo'naltirilgan strategiya** — bu talabalarda mustaqil izlanish, tahlil qilish va ilmiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishga qaratilgan yondashuv bo'lib, terminologik kompetensiyani chuqur va

ongli tarzda shakllantiradi. Ushbu strategiya asosida talabalar o'z mutaxassisliklariga oid terminlarni mustaqil o'rganadi, ularning kelib chiqishi, semantik xususiyatlari, qo'llanish doirasi va turli ilmiy manbalardagi talqinlarini tahlil qiladi. Shuningdek, talabalar mini-loyihalar yaratish, terminologik glossariylar tuzish, ilmiy ma'ruzalar, prezentatsiyalar, posterlar tayyorlash orqali kasbiy terminlarni amaliy faoliyatda qo'llab, ulardan ijodiy foydalanish imkoniga ega bo'ladi. Bu jarayon nafaqat terminlarni yodlashni, balki ularning ortidagi ilmiy tushunchalar tizimini chuqur anglashni, tahliliy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishni, mustaqil ilmiy faoliyatga tayyorlanishni ham ta'minlaydi. Shu sababli tadqiqotga yo'naltirilgan strategiya terminologik kompetensiyani shakllantirishning eng samarali va chuqur ta'sir ko'rsatadigan metodlaridan biri hisoblanadi.

4. Amaliy natijalar

Mazkur strategiyalarni qo'llash natijasida talabalar:

- terminlarni semantik jihatdan chuqur anglaydi;
- kasbiy muloqotda aniqlik va ishonchlilikka erishadi;
- tibbiy hujjatlar bilan ishlashda terminlarni to'g'ri qo'llay oladi;
- ingliz tilidagi kasbiy o'qish, tinglash va yozish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Amaliy natijalar o'rganilgan strategiyalarni joriy etish orqali talabalarda quyidagi ko'nikmalar shakllanganini ko'rsatdi: birinchidan, terminlarni semantik jihatdan chuqur anglash darajasi oshgani sababli, talabalar kasbiy yo'nalishiga oid terminologiyani kontekst ichida tahlil qilishi va to'g'ri ma'nosini anglash ko'nikmalarini rivojlantirmoqda. Axmedova tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlar shuni aks ettiradiki – talabalarning terminlarni tan olish, ma'nosini izohlash va kasbiy matnda qo'llash faolligi ancha yuqorilashgan. Ikkinchidan, kasbiy muloqot jarayonida

aniqlik va ishonchlilikka erishish darajasi oshdi, ya'ni talabalar tibbiyot va farmatsiya sohasida ingliz tilidagi terminlarni noto'g'ri ishlatish xavfining pasayganini, nutq hamda yozma muloqotlarida terminologiyani izchilligini yaxshilaganligini bildirdilar. Uchinchidan, tibbiy hujjatlar bilan ishlashda — masalan, klinik protokol, dori tavsifi, laboratoriya hisobotlari — terminlarni to'g'ri qo'llay olish malakasi ortdi, bu esa talabalarni amaliy kasbiy faoliyatga tayyorlashda muhim omil bo'ldi. Va nihoyat, ingliz tilida kasbiy o'qish, tinglash va yozish ko'nikmalari ham rivojlana boshladi: talabalar professional adabiyotlarni ingliz tilida o'qishi, ma'lumotlarni tinglab muhokama qilishi va yozma hisobotlar tayyorlashi mumkin bo'lgan darajaga yaqinlashmoqda. Natijada, talabalarning kasbiy kommunikativ kompetensiyasi sezilarli darajada ortgan va bu holat Axmedova tomonidan taqdim etilgan tajriba natijalarida aks etgan.

Natijada ularning kasbiy kommunikativ kompetensiyasi ham sezilarli darajada ortadi.

Xulosa

Bo'lajak tibbiyot va farmatsiya mutaxassislarida ingliz tilidagi terminologik kompetensiyani rivojlantirish — zamonaviy ta'limning ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Ushbu jarayonni samarali tashkil etish uchun bosqichli, integrativ, kommunikativ va IT asosidagi yondashuvlarni uyg'unlashtirish zarur. Shuningdek, terminologik kompetensiyani shakllantirish jarayoni faqat lingvistik emas, balki kasbiy, kognitiv, muloqotiy va axborot savodxonligini rivojlantiruvchi kompleks omil sifatida qaralishi lozim. Chunki tibbiyot va farmatsiya sohalarida terminlarni to'g'ri anglash va qo'llash talabalarga klinik ma'lumotlarni aniq talqin qilish, ilmiy maqolalarni mustaqil o'qish, zamonaviy diagnostika va davolash yo'riqnomalaridan foydalanish, farmakologik tavsiflarni tushunish va klinik qarorlar qabul qilish

jarayonida aniq fikr yuritish imkonini beradi. Shu bilan birga, terminologik kompetensiya talabalarda ilmiy nutq madaniyatini rivojlantirib, murakkab kasbiy muhokamalarda ishtirok etish, o'z fikrini aniq va mantiqiy ifodalash, ilmiy loyihalar va ma'ruzalarda qatnashish ko'nikmalarini shakllantiradi. Kelajakda bu yo'nalishda tibbiy ingliz tili darslarida adaptiv elektron resurslar, sun'iy intellekt texnologiyalari, virtual laboratoriyalar, 3D anatomiya modellaridan foydalanish, shuningdek, simulyatsiya asosidagi treninglar orqali terminologiyani real kasbiy vaziyatlarda qo'llash imkoniyatlari yanada kengayadi. Natijada talabalarning terminologik savodxonligi nafaqat nazariy darajada, balki amaliy kasbiy faoliyatda ham yuqori samaradorlikka ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

- Faber, P. (2009). Terminological competence in translation. John Benjamins Publishing.
- Bakirova, H.B. (2020). Formation of terminological competence in ESP education. JournalNX, India.
- Skornyakova, E.R., & Vinogradova, E.V. (2021). Enhanced terminology acquisition during ESP course: a multicompetence approach. ResearchGate.
- Nurmatova, U. (2023). Terminologik tizim shakllanishi va rivojlanishining nazariy-metodologik asoslari. Cyberleninka.
- Azadova, R.M. (2020). Teaching students professional terminology in the course of ESP. Cyberleninka.
- Corder, S.P. (2013). Introducing Applied Linguistics. Penguin Books.